

BOLA TARBIYASIDA MAKTABGACHA TA’LIM, OILA VA JAMIYATNING O’RNI

Ismoilova Gulmira Erkin qizi

*Termiz Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha psixologiya va
pedagogika yo‘nalishi. 99 525 81 89*

Annotatsiya: maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy tarbiyasi oiladan boshlanadi. Farzandda odob-axloq, ma’naviyat asoslarini qo‘yadigan ota-onalardir. Ushbu maqsadlarga erishishga yordam berish turli usullar va usullari: chaqaloqning individualligini qo’llab-quvvatlang: bola uni hurmat qiladi shaxsiy fazilatlar faqat otaonalar uning shaxsiyatini hurmat qilsalar; bolani madaniyat bilan tanishtirish: san’at asarlari uning fikrlash va xatti-harakatlariga foydali ta’sir ko‘rsatadi; bola bilan muloqotdir, ushbu maqolada bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim, oila va jamiyatning o’rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, ota-onsa mas’uliyati, oilaviy muhit, axloq, odob, insoniy munosabatlari, farzand tarbiyasi.

Yangilanayotgan o‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlарining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqate’tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasida oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidur hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb yozilgan. har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Oila –muqaddas dargoh. Muhtaram prezidentimiz shavkat mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir”. Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta’minalash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham

ma'suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Ona yurtiga muhabbatni shakllantirish, ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta'minlash, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni mактаб ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi.

Har bir ota-onan farzandining bilimli, baxtli, saodatli, istiqboli porloq bo'lishini orzu qiladi va shu maqsadga erishish uchun butun umrini, bor-yo'g'ini sarflaydi. Ayniqsa, bu bolasevar xalqimizning qalbiga singib ketgan fazilatdir. Sharq mutafakkirlaridan biri abul lays samarqandiy "bo'ston-ul orifiyn" asarida «ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga etadi» -yaxshi tarbiya muhimligini ta'kidlaydi. U ota-onalarning huquqlari va burchlari, saxovati, baxt-saodati, insonning oljanob fazilatları, qadr-qimmati, sadoqati va samimiyligi, sog'lig'i haqida qimmatli tushunchalar berdi. Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni ko'plab xalqning qimmatli durdonha hikmatlarida ham uchraydi. Ota-onalarning bola tarbiyadagi o'rni to'g'risida quyidagi maqolni keltirish mumkin: agar bog'ingiz bo'lsa, uni barpo eting, agar o'g'lingiz bo'lsa, mulla quring. Agar daraxtdan meva olishni istasangiz, uni nijolidan o'stiring. Ekinlarni suv bilan, ta'lim bilan o'stir - inson. Bizning madaniy va ma'naviy merosimiz bo'lgan hadisda ota-onalar va bolalarning huquqlari, ta'lim, axloq, do'stlik, qarindoshlik, mehr-oqibat, adolat va insof bilan bir qatordadir deyilgan.

Jamiyatda farzandni tarbiyalash ota-onalarning shaxsiy ishi emas, balki ularning ota-onalarining ijtimoiy burchidir. Ota-onalar farzandlarining tarbiyasi uchun ijtimoiy mas'uldirlar. Insonning qadr-qimmati, uning jamiyatga keltiradigan foydalari bilan o'lchanadi. Ota-onalar farzandlarining asosiy tarbiyachilari. Shuning uchun ular o'z farzandlarini oljanob fazilat, bilim va madaniyat sohibi

sifatida o‘z xalqlarining eng yaxshi an'analari va oilaviy an'analari ruhida tarbiyalashlari kerak. Oiladagi bolaning axloqiy shakllanishi bola tug'ilishidan boshlanadi. U ko‘plab omillar ta'siri ostida shakllanadi. Bu omillarga oilaviy munosabatlarning mohiyati, ota-onalarning namunasi, ularning ma'lumot darajasi, madaniyati darajasi va ularning estetik madaniyati va pirovardida oilani tashkil etish kiradi. Ushbu omillar oilada axloqiy tarbiyaning mazmunini tashkil etadi va bir qator xususiyatlarni o‘z ichiga oladi: ba'zi oilalarda farzand tarbiyasi faqat onaning zimmasida, ota buni qilishdan tiyiladi.

shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o‘zida “mактабгача та’лим”, “oila” va “jamiyat” nuqtai-nazarida shakllanib boradi. Biz oilani “davlat ichra kichik davlat”- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya’ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo‘ladi. Shu sababli ota-onalar farzandning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma’naviy yetuk qilib o‘stirish uchun, eng avvalo ota-onaning o‘zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota-onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota-onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh-urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota-onalar obro‘si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo’shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota-onalar ijobjiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir, ya’ni obro‘li ota-onalardir. Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, mактабгача та’limda ham e’tibor beradigan aqli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O.U. Hasanboyeva, M.X. tojiyeva, Sh.K. toshpo‘latova va boshq. Mактабгача та’лим pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo’llanma. (to‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ilm ziyo», 2011. — 184 b.
2. . Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlар va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017
3. O.Safarov, m.mahmudov “Oila ma’naviyati” – 2009 yil.
4. Sodiqova Sh. “Mактабгача pedagogika” Toshkent., 2013 yil.